

19<sup>th</sup> APRIL

2024



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

# BELARUS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
RESEARCH CONFERENCE

[info.interonconf@mail.ru](mailto:info.interonconf@mail.ru)

2024

[www.interonconf.org](http://www.interonconf.org)



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



**BELARUS** International scientific-online conference  
**“INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE”**

**Part 23**

**April 19<sup>th</sup>**

**COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

MINSK-2024



INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (19<sup>th</sup>April, 2024) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2024. Part 23 – 177p.

**Chief editor:**

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

**Editorial board:**

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, belorus казахша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE". Which took place in MINSK on April 19<sup>th</sup>, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024  
© Authors, 2024



<b>Suyunov G'olib Tufli o'g'li</b>	<b>70</b>
<b>Mirzayeva Malika Xurram qizi</b>	
<b>Daminova Fayoz Abdihakimovna</b>	
<i>OKSIDATIV STRESSDA TURLI TO'QIMALAR ANTIOKSIDANT TIZIMIGA VA MITOXONDRIYALAR FUNKSIYASIGA SINAROZID FLAVONOIDINING TA'SIRI.</i>	
<b>Ishonkulova Shirin Quchqar qizi</b>	<b>73</b>
<i>"BRUTSELLYOZ KASALLIGINING TARQALISHI, SABABLARI DAVOSI VA PROFILAKTIKASI"</i>	
<b>Ortiqova Lola Soatovna</b>	<b>77</b>
<b>Abrorova Kumush</b>	
<i>RESPUBLIKAMIZ CHO'L YAYLOVLARINING TUPROQ-IQLIM SHAROITLARINING QISQACHA TAVSIFI.</i>	
<b>Shirinov Laziz Toxirovich</b>	<b>80</b>
<i>BULUTLI HISOBLASH PROVAYDERLARI RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMI TAHLILI</i>	
<b>Olimova Donoxon Davlat qizi</b>	<b>88</b>
<i>"ODAM SAVDOSI ERKINLIKKA TAHDID"</i>	
<b>Ibroximov Ibratjon Iqboljon o'g'li</b>	<b>92</b>
<i>DASTURIY TAMINOT TIZIMLARINI TESTLASHDA OQ QUTI(WHITE BOX) VA QORA QUTI(BLACK BOX) TESTLASHNING AHAMIYATI</i>	
<b>Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li</b>	<b>98</b>
<i>TOHIR MALIKNING "ALVIDO BOLALIK" ASARIDA LEKSIK XUSUSIYATLAR</i>	
<b>Davronova Shohsanam G'aybulloevna</b>	<b>101</b>
<i>TILAK JO'RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT</i>	
<b>Soatova Mavluda Orolovna</b>	<b>108</b>
<i>"ONA TILI FANI MAVZULARINI O'RGANISHDA INTEGRATSIYALI TA'LIM"</i>	
<b>Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna</b>	<b>111</b>
<b>Kenjayeva Munisa</b>	
<i>ENVIRONMENTAL POLLUTION: CAUSES, EFFECTS, AND SOLUTIONS</i>	
<b>Qodirov Islombek Ikromjon o'g'li</b>	<b>114</b>
<i>JAMOAT TRANSPORTIDA HARAKATLANISHNING. ODOB QOIDALARINI YAXSHILASH.</i>	





## TILAK JO‘RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT

Davronova Shohsanam G‘aybulloevna

*Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori filologiya fanlari doktori  
(DSc),*

**Annotatsiya:** *Maqolada taniqli o‘zbek shoiri Tilak Jo‘ra she‘riyatida badiiy mahurati masalasi xususida so‘z borgan.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘zbek she‘riyati, badiiy ifoda, lirik qahramon, poetik fikr, ijodiy individuallik, Tilak Jo‘ra ijodi, badiiy mahurat.*

O‘zbek she‘riyatining iste‘dodli vakillaridan biri Tilak Jo‘ra ijodi g‘oyaviy teranligi hamda badiiy jozibası bilan e‘tiborni tortadi. Shoir ijodida, tabiat, jamiyat, inson olimining serqirraligi qalamga olinadi. Ijodkorning lirik qahramoni borliqning betakrorligidan ta‘sir lanadi, har bir hodisadan o‘ziga xos xulosalar chiqradi, ibratli mohiyat topadi.

Tilak Jo‘ra badiiy manzara yaratishda o‘ziga xos mahoratiga erishgan shoirlardandir.

Ayvondagi ola poxolni

Shamol yelpib qochadi, hamon

Poxoldan ham men yengil bo‘lib,

Uchib ketdim olis yurt tomon.

Shoir yaratgan badiiy tasvir naqadar hayotiy va haqqoniy. Qolaversa, satriardagi mazmundan qishloqning tabiiy manzarasini tasavvur qilish mumkin. Ammo shoirning ushbu holat tasviridan ko‘zlagan muayyan g‘oyaviy niyati bor. Bunda oddiygina, yengilgina poxol ham poetik mohiyat tashishga xizmat qilmoqda. Shoir parallel tasvirlash usulini qo‘llagan holda poxol va shamol timsollarning mohiyatida hayotiy bir haqiqatni singdirishga uringan. Ola poxol va shoirning lirik “men”i qismatdosh. Ya‘ni lirik qahramon poxolning timsolida o‘zini ko‘rgandek bo‘ladi. Shoirning talqinicha, shamol taqdirning badiiy timsoli bo‘lib kelmoqda. U poxolni yelpib qochgani kabi taqdir ham shoirni olis yurtga uchirib yuborgan. Shundan buyon shahardan qanchalar ma‘no izlamasin, unga xotiralari qatida o‘rnashib qolgan bolalik damlari, qishloq manzarasini eslatuvchi holatlar tun mavjida qalqqan o‘roq, og‘ayotgan devorni suyab, po‘st tashlagan bo‘ychan terak, torga osiq savat ostida tongni mudrab kutayotgan mushukvoy kabilarning bari qadrdon-oshno. Uning uchun chigirtkaning ohi g‘ijjakning sasidan ustun. Shoirning nazdida peshanasini g‘urra qilgan tulporlarning tuyog‘i hilolga o‘xshaydi. Hattoki ko‘kka termulib pishqirayotgan qari xachir ham xotiralarning qaysidir bir burchagida saqlanib qolgan. Shu boisdan ham:

...Torga osiq savat ostida

Tongni kutar mushukvoy mudrab.

Bolalikning xotiralari

Hamon meni keladi sudrab... [1.46]

deb yozar ekan, shoir tong kabi yorug‘ ranglardagi bolalik esdaliklariga yana qaytishga umidvor bo‘lishda davom etayotganligini anglatmoqchi bo‘ladi. She‘rning mazmuni



o'quvchini ona yurtiga, beozor va nurli xotiralar, umidvorlikka to'la inson umrining mazmuni haqida o'ylashga chorlaydi; taqdir qay kuylarga solmasin, qay tomonlarga boshlamasin, inson o'zligidan, qadriyatlaridan uzoqlasha olmasligi haqidagi iqrorga kelishga undaydi.

Tabiat va inson ruhiyatini parallel tasvirlash shoirning uslubiy mahoratini ko'rsatuvchi xarakterli xususiyatga aylanganligini yana boshqa ayrim she'rlar misolida ham dalillash mumkin. Shoxlari qarsillab yig'lagan kuzning ayozli quchoqlarida yaproqlaridan ayrilgan daraxtlarning, ovozlaridan ayrilgan qushchalarning bunchalar bezovtaligidan hayratga tushgan shoir o'zining ruhiyatidagi o'zgarishlarni anglay olmay, ajib hisga chulg'anadi, o'zidagi holatdan mantiq izlashga urinadi:

Ruhim-da bunchalar bezovta,  
Bilmayman u mendan ne istar.  
Kuzning ayozli quchoqlarida  
Men nima yo'qotdim, mendan  
ne kechar... [1.47]

Shoirning quyidagi satrlarida ham qishloqning teran manzarasi tasvirlangan va ayni paytda insoniy tuyg'ular betakror metafora orqali ifoda etilgan:

Silkinib qoldilar ortda teraklar,  
Egilgan shoxlarda bizning bolalik.

Bunda silkinib ortda qolgan teraklar jigargo'shasini qo'l silkib shaharga uzatib qolayotgan qishloq kishilarining badiiy timsoli sifatida namoyon bo'lmoqda. Demakki, bolalik egilgan shoxlarda qoldi, ya'ni, ayni paytda, farzandlar ham bolaligi bilan xayrlashdi. Shoir:

Bizga ona bo'lgan yalangoyoq yo'l  
Torlik qilib qoldi bizlarga nogoh

satrlari orqali orzuga, havasga to'la, kelajakka umidvor ildam qadam tashlayotgan o'spirinning timsolini tasavvurimizda jonlantiradi.

Maqsadimiz – tarang tortilgan kamon,  
Biz chaqmoq singari chaqnab boramiz.

misralarida yuksak maqsadlar sari intilayotgan yosh insonning esa tizginsiz, jilov bilmas va rad etib bo'lmas istak va qarorlarini ifodalaydi.

She'ning keyingi satrlarida ham ijodkorning poetik mahorati yaqqol namoyon bo'ladi.

Ammo yuraklardan o'chmaydi sira  
To'piqqa chiqmagan o'sha irmoqlar.

Bugun ona erur bizga xotira –

Yalangoyoq o'g'lin sevib quchoqlar! [1.45]

Bunda yalangoyoq o'g'lini sevib quchoqlagan irmoqlar orqali ifoda etilgan metaforik ko'chim yana ona qishloq timsolini jonlantirishga xizmat qilgan. Shoirning badiiy mahorati orqali tabiat va inson kechinmalari yonma-yon tasvirlanib, jonli badiiy manzara yaratilgan va ushbu manzara mohiyatida ibratli fikr, ulkan g'oyaviy yuk yuklangan. Inson qanchalik yuksakka intilmasin, jilvalanib turgan ulug'vor marralarga tomon harakat qilmasin, o'zining tarixiy xotirasidan, o'zligidan to'la-to'kis ayro ketib bilmasligi haqidagi xulosasini



bayon etadi. Insonni yorug' kelajakka undovchi, saxovatli, himmatli murabbiy – el, bag'ri keng yurt uning ortida turishi haqidagi haqiqat mujassam etiladi. Shoir o'zining g'oyaviy qarashlarini badiiy manzara yaratish mahorati orqali teran va ta'sirchan ifoda etishga erishgan.

Shoirning ushbu she'rida mubolag'a va o'xshatish muhim badiiy vosita sifatida qo'llanilib, satrlarning jozibasini va ta'sir kuchini oshirgan.

Tutdek to'kildi yuragim

Umidlarning silkishidan.

Seni sog'inib kutaman

Oftobning har chiqishidan. [1.4]

Ma'lumki, tut silkitiladi va to'kiladi. Ammo bunda shoirning lirik qahramoni yuragining tutdek to'kilganidan shikoyat qilmoqda. Demakki, uning yuragi qandaydir bir tashvishdan tilka-pora bo'lgan va to'kilgan. Albatta, bu mubolag'ali tasvir. Ammo xalqona satrlar zamirida alamli, inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etadigan kechinma haqida so'z borayotganligi ayonlashgach, muammoning darajasi misralardan misralarga kuchaytirib boriladi. Armonning sanchishi, alamning qamchisi lirik qahramon qonining tomchisiga sabab bo'ladi.

Shoirning she'rlarida mavhum ayrim tushunchalar ham o'zgacha mohiyatga va ushbu mohiyatiga monand keluvchi shakllarga ega bo'ladi.

Umid

Ko'rib mendagi go'zalligini

Ko'zlari qamashib,

Qon bo'lib chopadi tomirlarimda –

Dilbar bir umid... [1.3]

Shoirning talqinida umid tushunchasi yorug' rangda akslanadi. U insonni tomirlaridagi qon singari harakatga undaydi. Qolaversa, har bir qalbdan o'zgacha nurlanadi, o'zgacha turlanadi, tarovat kasb etadi. Shuning uchun ham u dilbar, go'zal. Chindan ham “Lirik qahramondagi bu umid shunday go'zalki, o'zining go'zalligiga boqib umidning ko'zlari qamashadi. Ko'zi qamashgan umid lirik qahramon tomirlaridagi qonga, ya'ni hayotga aylanadi. Endi u shunchaki umid emas, “Dilbar bir umid”. Shoirning fikrni ifodalashi o'ziga xos” [2.78]. Ijodkor insondagi umidvorlik va ishonchni ana shunday tasvirlab, qadrlaydi. Umidvor insonni yaratuvchanlik, intilish, jo'shqinlik va shijoatga daxldorligini mazkur satrlari orqali olqishlamoqchi bo'ladi.

Umuman olganda, Tilak Jo'ra she'rlari uning hayot voqealaridan, tabiat hodisalaridan poetik ma'no izlagashga intilganidan dalolat beradi. Bunga lirik qahramonning holat va kayfiyati, tafakkur va idrok olami ifodasi natijasi bo'lgan badiiy kechinma tabiati hamda poetik fikr uyg'unligi ham qo'shilgan holatda yaxlitlik kasb etib, shoirning ijodiy individualligini namoyon etadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Жўра Т. Руҳият. – Тошкент, Ёш гаврдя, 1990. – 64 б.



2. Sharipova L. Ruhiyat musavviri (Tilak Jo`ra she'riyatiga chizgilar) / Tahlil va talqin: adabiy-tanqidiy, publisistik maqolalar. – Buxoro: Durdona, 2021. – 248 b.
3. Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1982. – 384 б.
4. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
5. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
6. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
7. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
8. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. (Feb. 2021), 679–683.
9. Davronova S. Eastern and western literary tradition in the modern uzbek novels //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9). – С. 33-34.
10. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
11. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
12. Shokhsanam D. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2016. – Т. 4. – №. 5. – С. 33-34.
13. Давронова Ш. Литературное влияние и творчество //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
14. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
15. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКССАДОСИ"(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
16. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
17. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK KHAMDAM'S NOVEL " FATHER.





18. Davronova S., Kandimova I. CHARACTER CREATION SKILLS OF LUKMON BORIKHAN //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.
19. Latipov H. R. ALISHER NAVOI ON LOVE, ENLIGHTENMENT AND AWARENESS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 551-556.
20. Ramazonovich L. H. Souls striving to god or from the world of wise people //Journal of Social Sciences and Humanities Research. – 2018. – Т. 6. – №. 04. – С. 14-18.
21. Ramazonovich L. H. Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 20-28.
22. Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>
23. Ramazonovich, L. H. . (2024). Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs. International Journal of Formal Education, 3(4), 20–28. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2474>
24. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 4753-4767.
25. Muhammadova M. HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA: Mahbuba Muhammadova Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
26. Mahbuba, Muhammadova. "Nisoriyning" Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati." Karabük-2020.
27. Mo'minovna M. M. SECTION: HISTORY SCIENCE //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – С. 29.
28. Mo'minovna M. M. NISORIY DO 'ST MUHAMMAD SULTON VA UNING IJODKOR SIFATIDAGI QIRRALARI HAQIDA //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 348-350.
29. Makhbuba M. Muzakkiri Ahbob" Fable By Nisari And Its Role In Literature Studies //European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – Т. 7. – №. 10. – С. 111-116.
30. Sanobar A., Mahbuba M. O'LMAS UMARBEKOVNING"ODAM BO'LISH QIYIN"ASARINING BADIY TAHLILI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 74-80.
31. Mo'minovna M. M., VA N. D. O. S. T. M. S., HAQIDA U. I. S. Q. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2023 //T. – Т. 3. – С. 348-350.
32. Muxammadova M. The Image of Navoi in the" Muzakkiri Ahbob" Tazgire //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 137-143.
33. Raximovna U. N. TASAVVUF TA'LIMOTI VA G 'ARB ADABIYOTI //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – С. 117-119.



34. Umurova N. "IQRORNOMA" VA ISLOM FALSAFASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
35. Umurova N. INTERPRETATION OF HIS IDEAS IN THE WORK OF AHMAD YASSAVIY //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 45-49
36. Raximovna, Umurova Nigina. "“Beshinchi tog ” asarida Sharq falsafasi." Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. 2023.
37. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on “The Fifth Mountain” By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 2.
38. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 629-634.
39. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕХҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. IMRAS, 7(1), 779-783.
40. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕХҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(24), 22-25.
41. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕХҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(22), 66-70.
42. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕХҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(22), 66-70.
43. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In E Conference Zone (pp. 71-73).
44. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
45. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.
46. Saidahmedovna, Uraeva Darmon, and RustamovaGavharBahronQizi. "Beliefs About the" Tree of Life" in Uzbek Folklore." MiddleEuropeanScientificBulletin 8 (2021).
47. Darmon U., Rano R., Dilshod R. The Stylization of Prose Tales in Uzbek Children's Literature //Religación. – Т. 4. – S. 170-174.
48. Saidakhmedovna, U. D., & Abdumalikovna, T. D. (2023). Ceremonial Dishes in Uzbek Language. Texas Journal of Philology, Culture and History, 15, 35-38.
49. Saidakhmedovna, U. D. (2022). Artistic Interpretation of Guests and Hospitality in Uzbek Literature. International Journal on Integrated Education, 5(6), 155-157.
50. Oxunjonovna, S. H. The crow, the owl, the raven, the slice, which turned your flowers.(one of the example create of Samandar Vohidov). IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 6, 211-216.



51. Oxunjonovna, H. S. (2022). Parents Double Wings to the Child. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
52. Urayeva, D., & Nazarova, G. (2021). Comparative analysis of mythological names and mythologisms in the english and uzbek literature. Philology Matters, 2021(1), 3-21.
53. Saidjanovna, U. D., & Rustamovna, Y. G. (2022). THE ANALYSES OF CHRONOTOPE OF THE ROAD IN JOHN STEINBECK'S NOVEL "THE GRAPES OF WRATH". EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(9), 46-48.
54. Sh, Hayitov. "Depiction of king and great leaders in classic literature." International Journal on Integrated Education (2020): 161-164.
55. Hayitov, Shavkat Ahmadovich. "DREAM OF A PERFECT RULER." Theoretical & Applied Science 1 (2020): 459-463.
56. Sh, Hayitov. "The genre of manokib and the problem of a perfekt human being." International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192.
57. Hayitov, Shavkat Akhmadovich. "The altitude of maturity." Scientific reports of Bukhara State University 3.1 (2020): 167-172.
58. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – C. 4753-4767.
59. Ahmadovich S. H. CRITERION OF JUSTICE //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 193-204.
60. Аҳмадович, Ҳайитов Шавкат. "Алишер Навоий тиб илми ва табиблар ҳақида." Conferences. 2021.
61. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. History of a Ghazal of the Mawlana Jami's Literature //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 102-106.
62. Hayitov S. A. THE IMAGE OF A PERFECT ARTIST (HAFIZ) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 3. – С. 322-326.
63. Ahmadovich, Shavkat Hayitov. "CRITERION OF JUSTICE." Scientific reports of Bukhara State University 4.1 (2020): 193-204.
64. HAYITOV, Shavkat. "BADIIY NASRDA QURO'NI KARIM OYATLARINING O'RNI." Alisher Navo'i and 21 st century 1.1 (2024).
65. Ahmadovich, Hayitov Shavkat, and Maftuna Bafoeva. "ATTITUDE OF HISTORICAL AND LITERARY CHARACTERS OF ALISHER NAVOI TO ART." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 69-74.
66. Hayitov, Shavkat. "Alisher Navoi's attitude to" green space"." E3S Web of Conferences. Vol. 431. EDP Sciences, 2023.